



IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING “TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI



Buxoro-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

		tarmoqlaridir. Ular standart menyu va xizmatni taqdim etsa-da, mintaqaviy xususiyatlarni ham saqlab qolishi mumkin. Masalan, muayyan mintaqada mashhur bo‘lgan restoranlar tarmog‘i.
	Xalqaro tarmoqlar	bu toifa global fast-fud va restoran biznesi brendlarini o‘z ichiga oladi, masalan, McDonald's, KFC, Starbucks . Ular ko‘plab mamlakatlarda faoliyat yuritib, butun dunyo bo‘ylab bir xil menyu va xizmat sifatini ta‘minlaydi, shu bilan birga brend tanib olish darajasini oshiradi.

Bu guruhlarining har biri umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorida o‘z segmentiga ega bo‘lib, mijozlarga turli xil xizmatlar ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda umumiy ovqatlanish sohasiga ingliz tilidan ko‘plab yangi terminlar kirib kelmoqda va ular zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini topdi. Masalan, HoReCa (rus. Хóрeкá) – umumiy ovqatlanish va mehmonxona xo‘jaligi sohasini ifodalovchi atama³¹⁸.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi vaqtda O‘zbekistonning umumiy ovqatlanish bozorida raqobat shunchalik kuchli bo‘lib qoldiki, bozorda faqatgina mavjud bo‘lib qolish kerak emas, balki eng yaxshisi va sifatlisi bo‘lish kerak. Ovqatlanish korxonalarining asosiy vazifasi – bu mahsulotning keng assortimenti, sifati va xizmat ko‘rsatish madaniyatidir.

Shunday qilib, bugungi kunda umumiy ovqatlanish korxonaning turli shakllari, turlari va xususiyatlarini ifodalaydi. Shunga qaramay, zamonaviy ovqatlanish korxonalarining yangilarini ochish uchun hali ham bo‘sh ish o‘rinlari va talabi mavjud. Yangi formatdagi muassasalarni taklif qilish orqali, masalan, video o‘yinlar bari, antikafe, gamak kafesi, ko‘rgazma zallari va boshqalar kabi aholi orasida talab yuqori bo‘lgan korxonalarga tashrif buyuruvchilarni ko‘proq jalb qilish mumkin. Bundan tashqari, ushbu ko‘rinishdagi muassasalar investorlar uchun ham qiziqarli bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.
2. Зайко Г.М. Организация производства и обслуживания на предприятиях общественного питания. М.: Магистр, 2011 Радченко Л.А. Обслуживание на предприятиях общественного питания. Ростов н/Д: Феникс, 2010.
3. Протасова Л.Г., Тохириён Б. Анализ рынка и классификация предприятий общественного питания. Управленец. 2013. №5 (45).
4. Информация о состоянии и итогах развития потребительского рынка Свердловской области за январь–июнь 2012 г. URL: <http://mintorg.midural.ru>

MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAKO‘L IP-YIGIRUV FABRIKASI TARIXI

Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti
dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

³¹⁸ Информация о состоянии и итогах развития потребительского рынка Свердловской области за январь–июнь 2012 г. URL: <http://mintorg.midural.ru>

f.x.utayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyati Qorako'l tumanida tashkil etilgan ip-yigiruv fabrikasi faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. To'qimachilik va trikotaj sanoati uchun kerak bo'lgan ip-kalava Qorako'l ip-yigiruv fabrikasida ishlab chiqarilgan. Qorako'l ip-yigiruv fabrikasini yangi texnologiyalar bilan jixozlantirish va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalalari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о деятельности прядильной фабрики, созданной в Каракульском районе Бухарской области. Хлопчатобумажная пряжа, необходимая для текстильной и трикотажной промышленности, производилась на Каракульской прядильной фабрике. Изложена информация по вопросам оснащения Каракульской прядильной фабрики новыми технологиями и обеспечения квалифицированными специалистами.

Abstract. The article provides information on the activities of a spinning mill established in the Karakul district of the Bukhara region. The yarn needed for the textile and knitwear industry was produced at the Karakul spinning mill. Information is presented on the issues of equipping the Karakul spinning mill with new technologies and providing it with qualified specialists.

Kalit so'zlar: ip-kalava, to'qimachilik, mutaxassis, oilalar, gazlama, texnologiya, iqtisod, mehnat jamoasi, yillik reja.

Ключевые слова: пряжа, текстиль, специалист, семьи, ткань, технология, экономика, трудовой коллектив, годовой план.

Key words: yarn, textile, specialist, families, fabric, technology, economy, work team, annual plan.

Maqolada mustaqillik yillarida Qorako'l ip-yigiruv fabrikasi faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asosan, 1990-yilga kelib bozor iqtisodiga o'tish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bozor iqtisodiga o'tish dasturini yaratishga harakat qilindi, maxsus komissiyalar tuzilgan. Qorako'l ip-yigiruv fabrikasi viloyatda o'ziga xos yengil sanoat korxonalaridan biri sanalgan. Bu yerda 65-raqamli, oddiy til bilan aytganda, 65 metri bir gramm chiqadigan ip yigiriladi. Bu darajada ingichka ip faqat Qorako'lda tayyorlangan. Mana shundan ham ko'rinib turibdiki, ish mas'uliyati boshqa joylardagiga qaraganda, un chandon ortiq bo'lgan. Ishga tushganiga olti yil bo'lishga qaramay (1988-yil tashkil etilgan), fabrika loyiha quvvatiga chiqa olmagan. Fabrika bir yilda 1650 tonna ip yigirishi rejaga kiritilgan. Bu reja 1990-yilgacha amalga oshgan. [2]

1991-yildan mamlakatimizda chakana mollar narxining oshishi kishilarni ijtimoiy jihatdan muhofazalash zaruratini yuzaga keltirdi. Chunki arzon narxda mollar xarid qilib o'rgangan odamlar narxlarni birdan oshishiga va mablag'larini shunga moslab xarajat qilish dastavval qiyin bo'lgan. Yana bir tomoni, ishchi kuchlari yetishmayotgan fabrikalarda xodimlarni ijtimoiy muhofaza etish ham muhim bo'lgan. [1]

Bozor iqtisodiga o'tishning dastlabki yillarida Qorako'l ip-yigiruv fabrikasida ishlab chiqarish sur'atlari pasayib, mehnat unumdorligi kamaygan. Fabrika kasaba uyushmasi kelishgan holda mehnat jamoasi kengashida bu boradagi masalalarni ko'rib chiqdilar. Ma'lumki, avvallari fabrikalarda ishchilar oshxonalarida ovqatlar narxi arzon bo'lib, iqtisodiy jihatdan qulay edi. Lekin 1991-yil oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi hisobiga pishirilayotgan ovqatlar bahosi ham ko'tarilgan. Bu esa ishchilarning hamyoniga unchalik to'g'ri kelmagan. Masalan, oldin fabrika oshxonasida birinchi va ikkinchi ovqatlar narxi sakson tiyinni tashkil etgan bo'lsa, 1991-yil apreldan e'tiboran esa bu raqam qariyb ikki hissa ko'tarilgan. O'rtacha oylik 170 so'm maosh olayotgan ishchilarni bu jarayon qanoatlantirmagan. [3]

Bozor iqtisodiyoti sharoitini qonunlari kishilarni shoshiltirib qo'ygan. Fabrika ma'muriyat va kasaba uyushmasi tashkiloti imkoni boricha ishchilarga yordam bergan. 1991-yil yanvar, fevral va mart oylarida ishchi xizmatchilarga jami 800 so'm yordam puli berilgan. Norboyev, Amin Ruziyev, Nasiba Imomova, Mohira Ruziyevalarga 60-100 so'mdan moddiy yordam berilgan.

Gulsara Raximova, Zarif Yusupovlarga 1991-yil uy-joy qurishi uchun fabrikadan 500 so'mdan qarz berilgan. Sanoat va oziq-ovqat tanqisligi sezilgan vaqtda fabrika shahar hokimligi bilan kelishgan holda aralash mollar magazinini ochgan. Bu magazinga ishchi narxidagi arzon sanoat mollari yetkazib berilgan. Yordamchi xo'jalik issiqxona ham tashkil etilib, bu yerda turli sabzavot va gul ko'chatlari yetishtirib, ishchilarga arzon pomidor ko'chatining donasi bozorda un tiyin bo'lsa, ishchilarga besh tiyin qilib sotilgan.

Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun dastlab muhim iste'mol tovarlariga dotatsiyali narxlar qo'llandi, ya'ni amalda qimmat turgan tovarlar aholiga arzonlashtirilgan narxda sotilib ko'rilgan zararni byudjet bergan pul hisobidan qoplanib kelingan. 1992-yildan e'tiboran texnikaviy tovarlar va ayrim iste'mol tovarlarining kelishilgan (erkin) narxlariga o'tildi, ammo eng zarur iste'mol mollari dotatsiyalangan narxlar saqlansada, ularda sotiladigan tovarlar ro'yxati qisqartirilib borilgan.

Buxoro ip-gazlama birlashmasida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan muhandis Abdulla Bebutov 1993-yil iyun oyida Qorako'l ip-yigiruv fabrikasiga direktor bo'lgan. 1993-yil noyabrda 76 tonna, dekabrda esa 90 tonna ip yigirilgan. 1992-yil 73 tonna ip yigirilgan edi. Qorako'l ip-yigiruv fabrikasida ingichka tolali paxtani yigiradigan bunday fabrikada asosan yuqori malakali ishchilar mehnat qilishi kerak. Ishga olingan yoshlar ish urgangunga qadar turli sabablar bilan ketib qolishgan. 1993-yil oxirgi olti oy ichida dastgohlarda ishlaydigan ishchilarning uchdan ikki qismi yangilanib, ularni malakasini oshirish choralari ko'rilgan.[4] Chunki malakani oshirmay turib, yuqori unumdorlikka va sifatga erishib bo'lmaydi.

1994-yil Germaniya Federativ Respublikasidan yangi dastgohlar sotib olish choralari ko'rilgan. 1994-yil "Tekstima" firmasining Qozog'iston va O'zbekiston respublikalari vakili Verner Noybert tashrif buyurib, hamkorlik yo'lga qo'yilgandan keyin yuqori sifatli trikotaj iplari tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Fabrikada 1994-yildan qiyin ahvoldan chiqish uchun ish uch smenada tashkil etilgan. Ishchilarni muhofaza qilish chora-tadbiri ko'rib, 1994-yilda oyiga olti ming so'mdan ovqat po'li berilgan. Fabrika oshxonasida ovqat narxi ancha arzon qilib qo'yilgan. Barcha bayramlarda mukofot pullari berilgan. Fabrika ahli 1993-yil 2-3 tonna ip yigirilgan bo'lsa, 1994-yilda 4-4,5 tonnaga yetib yutuqqa erishgan. Ingichka tolali paxtani injik paxta deyishgan. Uni yigirish ham oson bo'lmagan. Qorako'l ip-yigiruv fabrikasining ip-kalavalari Toshkent, Buxoro, Samarqand va Andijon trikotaj fabrikalariga yuborilgan.[5]

Xulosa qilib aytganda, Qorako'l ip-yigiruv fabrikasi aholini ish bilan ta'minlagan. Trikotaj va to'qimachilik fabrikalari uchun ingichka tolali paxtadan sifatli ip-kalava ishlab chiqarilgan. Mamlakat iqtisodini rivojlantirishda munosib hissa qo'shgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ислон Каримов Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т., "Ўзбекистон", 1995 йил, 19-бет.
 2. Б. Мирзакулов. Бухоро тарих зарварақларида. – Бухоро: Дурдона, 2018. – 212 б.
 3. К.Пирназаров // Бозор иқтисодиёти: ишлар, қийинчиликлар, муаммолар. Бухоро ҳақиқати, 1991-йил 26-апрел
 4. Б.Жумаев // Инжиқ ип муаммолари. 1994-йил 11-январь №4 (18.591) Бухоро ҳақиқати
 5. Muallifning G'.R. Norpo'latov bilan shaxsiy muloqoti 2023-yil 23-avgust.
- * Norpo'latov G'aybullo Ramozanovich 1963-yil Qorako'l tumanida tug'ilgan. 1987-yilda Qorako'l yigiruv fabrikasida oshpaz bo'lib ishlagan. Yengil sanoat texnikumni o'qigach, 1990-

2008-yillarda sovutish bo'limini texnik nazorat holatini nazorat qilish bo'limida ishlagan. Hozirda Qorako'l yigiruv fabrikasi o'rnida tashkil etilgan "Real Teks Qorako'l" ip ishlab chiqarish fabrikasida ishlaydi.

O'SMIRLARDA EMOTSIONAL ZO'RIQISHNI OLDINI OLISH VA KORREKSIYALASHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI.

Xayriyeva Maxtobxon Farxodovna

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

m.f.xayriyeva@buxdu.uz

O'smirlik davri insonning eng o'zgaruvchan va psixologik jihatdan murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda jismoniy, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlar o'smirlarning emotsional holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Emotsional zo'riqish, depressiya, xavotir va stress kabi muammolar o'smirlar orasida keng tarqalgan. O'smirlar bu davrda qandaydir psixologik mexanizmlar orqali o'z stresslarini kamaytirish, hissiy barqarorlikni saqlashga harakat qilishadi. Ushbu maqolada, emotsional zo'riqishni oldini olish va korreksiyalashda qo'llaniladigan psixologik mexanizmlar, ularning samaradorligi va tadqiqotlar asosida kengaytirilgan tahlil keltiriladi.

O'smirlik davrida emotsional zo'riqishning sabablari.

Emotsional zo'riqish va stressning o'smirlar orasida tarqalishi ko'plab ijtimoiy, biologik va psixologik omillarga bog'liq. O'smirlik yoshidagi emotsional holatlar o'zgaruvchan va tez-tez beqaror bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zlarining jismoniy o'zgarishlarini, jamiyatdagi o'rnini va oila muhitidagi vaziyatlarni tushunishga harakat qilishadi, bu esa emotsional zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin.³¹⁹

Jismoniy va biologik o'zgarishlar: O'smirlikda gormonal o'zgarishlar jismoniy o'sishni va hayz ko'rishning boshlanishini o'z ichiga oladi, bu esa o'smirning emotsional holatiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'smirlar gormonal o'zgarishlar tufayli hissiy jihatdan beqaror bo'lishadi va bu depressiya va xavotirga olib kelishi mumkin (Kuehner, 2017).

Ijtimoiy bosim va stress: O'smirlar jamiyatning yuqori talablariga javob berishga harakat qilishadi, shu jumladan o'qishdagi muvaffaqiyat, do'stlar bilan o'zaro munosabatlar va oila kutganlari. O'smirlar ijtimoiy mediada o'zlarini taqqoslash orqali qo'shimcha stressga duch kelishadi. Twenge va Chou (2017)ning tadqiqotiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli aloqa o'smirlarning stress va depressiya darajasini oshiradi.

Oila muhitidagi muammolar: O'smirlarning oila muhitidagi stress faktorlari, masalan, ota-onalar o'rtasidagi janjallar yoki moliyaviy muammolar, emotsional zo'riqishning asosiy sabablaridan biridir. Ota-onalar bilan munosabatlarning noaniqligi o'smirlarning hissiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik mexanizmlar va ularning roli

Psixologik mexanizmlar, o'smirlarning emotsional holatini boshqarish, stressni kamaytirish va salbiy his-tuyg'ulardan qochish uchun ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu mexanizmlar o'smirlar orasida stressni boshqarishda samarali va o'zgartirish jarayonlarida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

³¹⁹ Fletcher, A., et al. (2010). *Social Support and Adolescent Mental Health*. Clinical Child and Family Psychology Review.

<i>D.S. Raximova</i>	<i>Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorining tahlili va tasniflashi.....</i> 692
<i>Utayeva Feruza Xolmamatovna</i>	<i>Mustaqillik yillarida qorako'l ip-yigiruv fabrikasi tarixi.....</i> 695
<i>Xayriyeva Maxtobxon Farxodovna</i>	<i>O'smirlarda emotsional zo'rqiqlashni oldini olish va korreksiyalashning psixologik mexanizmlari.....</i> 698
<i>Boyqabilov Norpilot Bozarovich</i>	<i>Hamid ziyoyev. Xvi-xix asrlardagi ona turkiston tarixiga bir nazar. Talqin va bayon.....</i> 699
<i>Kodirova Munavvar Ganijonovna</i>	<i>Eron bilan urushdan keyin Yunonistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.....</i> 705
<i>Xalim-Zade Azizabonu Shuxratovna</i>	<i>Ziyorat turizmini rivojlantirishga oid turli nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili.....</i> 706
<i>Изамова Шахрибону Гаппаровна</i>	<i>Гастрономический туризм и фестивали: история, перспективы развития.....</i> 709
<i>Norova D.R.</i>	<i>Hunarmandchilikda zar do'ppi xillari va tayyorlash usullari...712</i>
<i>Kalonova Iroda Turgunovna</i>	<i>Buxoro Eroniylari etnomadaniy turmushida taomlar o'rni.....715</i>
<i>Nurnazarov Dilshod Rashidovich</i>	<i>Buxgalteriya hisobida asosiy vositalarning chiqib ketishi.....717</i>
<i>Ниязова Шахноза Бахтиёровна</i>	<i>Роль мотивационной системы в повышении производительности труда на строительных объектах.....719</i>
<i>Ў.Н. Ҳакимова</i>	<i>Бухоро шахристонида чикган чақалоқ скелетлари.....</i>
<i>Xayrulloev Sardor, Qurbonova M.B.</i>	<i>O'zbeklarda motam liboslarining o'ziga xos jihatlari.....725</i>
<i>Jumaturdiyev Jamshid Rustam o'g'li</i>	<i>Yevropadagi migratsion jarayonlar tarixiga bir nazar.....727</i>
<i>Murodova Dilrabo Shomurodovna, Raxmonova Zarina Hakim qizi</i>	<i>Mustaqillik yillarida buxoroda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar730</i>
<i>Buriyev Zavqiddin Toshpo'lat o'g'li</i>	<i>XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida kaspiyorti viloyatida ta'lim tizimi faoliyati tarixi.....732</i>
<i>Ikromova Xumora Ilich qizi</i>	<i>Devoni sayqaliy asarining poetik qirralari.....736</i>
<i>Narziyeva Maftuna</i>	<i>Turkiston qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasining faoliyati tarixi (1898-1917-yillar).....739</i>
4-SHO'BA	
FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.	
<i>Абдуҷаббаровой Мухтасархон</i>	<i>Интерактивные упражнения для изучения грамматики.....745</i>
<i>Туремуратова Замира Караматдиновна</i>	<i>Порядок слов в предложении.....748</i>
<i>Doniyorov Nosirjon Abduxoliq o'g'li,</i>	<i>XXasrning 20-yillari o'zbek alifbosini lotinlashtirishning targ'ibot-tashviqot va tashkiliy masalalari tarixidan.....751</i>
<i>A.B.Asadov</i>	<i>Innovative pedagogical approaches to teaching preventive speech acts for developing sociopragmatic competence.....757</i>